

# **Maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi tarbiyalanuvchilarining mustaqillik sifatleri tahlili va bolalarda mustaqillik sifatlerini shakllanishiga ta'sir etuvchi omillarni o'rganish**

Nafisa Burikulovna Gulyamova  
academikaget 6767@gmail.com  
Toshkent shahar 410-maktabgacha ta'lim tashkiloti  
N.X.Xolyigitova  
KIUT

**Annotatsiya:** Maktabgacha yoshdagi bolalarda mustaqillikni o'yin faoliyati orqali shakllantirishni o'rganishga qaratilgan tadqiqotlar o'yin bolalarda mustaqillikni rivojlantirishga qanday hissa qo'shishini tahlil qilish maqsadida amalga oshirishni ko'zda tutadi. Eksperimental yondashuv o'yinning bolaning mustaqilligiga ta'sirini tizimli tahlil qilish imkonini beradi. Tadqiqotda bolalarning mustaqillik darajasini baholash uchun turli xil usullar va metodlarini qamrab olgan masalan, o'z-o'zini baholash shkalasi, xatti-harakatlarini kuzatish yoki maxsus ishlab chiqilgan o'yin faoliyatida ishtirok etuvchi bolalarning eksperimental guruhini bolalarning nazorat guruhi bilan taqqoslash kabi metodlardan foydalanilgan.

**Kalit so'zlar:** mustaqil, muloqot qilish tadqiqot, mustaqillik sifatleri, o'yin faoliyati, ta'lim, maktabgacha ta'lim

## **Analysis of independence qualities of students in preschool educational organizations and study of factors affecting the formation of independence qualities in children**

Nafisa Burikulovna Gulyamova  
academicget 6767@gmail.com  
Tashkent city 410th preschool educational organization  
N.K. Kholyigitova  
KIUT

**Abstract:** Research aimed at studying the formation of independence in preschool children through game activities is intended to be carried out in order to analyze how the game contributes to the development of independence in children. The experimental approach allows for a systematic analysis of the influence of play on the child's independence. The research includes various methods and methods for

assessing the level of independence of children, such as self-rating scales, observing behavior or participating in specially designed play activities, and an experimental group of children is compared to a control group of children. methods such as comparison with the group were used.

**Keywords:** independent, communication research, qualities of independence, game activity, education, preschool education

## KIRISH

O'rganayotgan muammoga hozirgi vaqtda rivojlanayotgan shaxsning individualligini, uning ijodiy imkoniyatlarini to'liqroq ochib berishning gumanistik vazifalari bilan bog'liq. Faol, mustaqil, ijodiy shaxsni shakllantirish muammolari aslida maktabgacha ta'lim yoshdagi bolalar bilan ishlash orqaligina hal etish mumkin. Psixologik tadqiqotlar shuni isbotlaydiki, maktabgacha davrda mustaqillik va ijod asoslarini shakllantirish uchun qulay imkoniyatlar ochiladi. Mustaqillikning o'z vaqtida rivojlanishi bilish, muloqot qilish imkoniyatlarini kengaytiradi va bolaning maktabdagi vaziyatga muvaffaqiyatli kirishiga tayyorlaydi. Mustaqillikning namoyon bo'lishining yangi ijtimoiy sharoitlarida u nafaqat jamiyatning uning rivojlanish tendentsiyalarining obyektiv xususiyatlari bilan belgilanadigan talabi, balki har bir insonning tanlash qobiliyatini kengaytirish dunyosida ortib borayotgan dolzarb ehtiyoj sifatida namoyon bo'ladi[1]. Bu zamonaviy pedagogika fani va tarbiya amaliyotini bolalarda mustaqillikni rivojlantirishga qaratilgan pedagogik jarayonni optimallashtirish bilan bog'liq keng ko'lamli muammolarni hal qilish zarurati oldiga qo'yadi[2]. Yuqoridagi muammolar kelib chiqqan holda bizning tadqiqotimizda asosiy masala o'yin faoliyati orqali maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarda mustaqillik sifatlarini tarbiyalashga qaratilgan. Maqola o'yin faoliyatidan foydalanish orqali bolalarda mustaqillikni rivojlantirish masalalari o'rganilgan.

### Tadqiqot metodlari

- Ilmiy tahlil
- So'rovnomalar (ota onalar va pedagoglar o'rtasida)
- O'z-o'zini baholash shkalasi,
- Kuzatish
- Taqqoslash
- Statistik tahlil

### Tadqiqot borishi

Tadqiqot muammolarini hal qilish uchta asosiy bosqichda amalga oshirildi:

*I bosqich 2022* - nazariy izlanish: adabiy manbalarni tahlil qilish, maktabgacha ta'lim muassasalari va kasb-hunar pedagogik ta'lim tizimidagi ta'lim muassasalari tajribasiga asoslanib, maktabgacha ta'lim muassasalarida mutaxassislar tayyorlash nazariyasi va amaliyotida o'rganilayotgan muammoning hozirgi holati aniqlandi.

Aniqlangan; tadqiqot mavzusi va gipotezasiga aniqlik kiritildi; dastlabki nazariy pozitsiyalar tizimi belgilandi va mustaqillikni rivojlantirishning o'yin faoliyatining tarkibiy-funksional modeli ishlab chiqildi.

*II bosqich 2023*) - eksperimental: mustaqillikni rivojlantirishning yaratilgan o'yin faoliyati modeli sinovdan o'tkazildi, maktabgacha yoshdagi bolalarda mustaqillik darajasini aniqlash uchun diagnostik tadqiqot metodologiyasi ishlab chiqildi. Ushbu bosqichda Shakllantiruvchi eksperimentning eng samarali usullari va tamoyillari aniqlandi va tayyorgarlik guruhi bolalarida mustaqillikni rivojlantirish metodikasi taklif qilindi.

Formativ eksperiment keyinchalik tuzatish, olingan natijalarni tahlil qilish va ularni umumlashtirish bilan birga o'tkazildi. Eksperimental va nazorat guruhlarida sodir bo'lgan o'zgarishlar dinamikasi kuzatildi.

*III bosqich 2024* - yakuniy va umumlashtiruvchi: nazariy tadqiqotlar davomida olingan ma'lumotlarni tahlil qilish, tizimlashtirish va talqin qilish va tuzilgan modelni eksperimental sinovdan o'tkazish; asosiy xulosa va tavsiyalar shakllantirildi;

- Tadqiqot asosi:

Tadqiqot uchun eksperimental baza Toshkent shahrida joylashgan 34, 136, 183 maktabgacha ta'lim muassasalari va Toshkent kimyo xalqaro universitetining Pedagogika va boshlang'ich ta'lim metodikasi fakulteti maktabgacha ta'lim muassasalari mutaxassisleri va tarbiyalanuvchilari ishtirok etdi. O'rganishning turli bosqichlarida 10 dan ortiq maktabgacha ta'lim muassasalari xodimlari, bolalar va ularning ota-onalari ishtirok etdi.

Tadqiqotda bolalarning mustaqillik darajasini baholash shuningdek bu borada pedagoglar fikrini o'rganish maqsadida maxsus Toshkent shahar Mirobod tumani Inoq-obod ko'chasida joylashgan №34 bolalar bog'chasi, bo'lib o'tdi.

№34 bolalar bog'chasi 3 binodan iborat. Maktabgacha ta'lim muassasasining asosiy binosi 2008-yilda qurilib, foydalanishga topshirilgan.

№34 bolalar bog'chasi bepul davlat maktabgacha ta'lim muassasalarini tashkil etadi;

№34 bolalar bog'chasi 18 ta guruh faoliyat yuritadi. 2022-2023 o'quv yili uchun ro'yxat 300 nafar bolani tashkil etadi.


Eksperimental tadqiqot natijalari

#### 1-Bosqich

Tadqiqot avvalida mavzu maqsad vazifalariga monand mavzu dolzarbligi va mavjud muammolarni o'rganish maqsadida maktabgacha ta'lim pedagoglari va ota onalar o'rtasida maxsus anonim so'rovnoma o'tkazildi.


“Bolalarda mustaqillikni qanday rivojlantirish kerak” so'rovnoma natijalari

1. Siz ishlayotgan guruhda bolalar mustaqillik sifatлари qay darajada rivojlangan savoliga respondentlarning 40 % yuqori 20 % oʻrta 40% past darajada deya baholandi.




1. Diagramma. Soʻrovnoma natijalari.

2. Siz bolalar bilan mustaqillik sifatlarini rivojlantiruvchi mashgʻulotlar olib borasizmi? savoliga tarbiyachilarning 50% Ha 15% yuq qolgan 35% Ha ammo har doim emas deya javob berishdi




2. Diagramma. Soʻrovnoma natijalari

3. Siz bolalar bilan ishlashda koʻproq qanday mustaqillik sifatlarini rivojlantiruvchi faoliyatidan foydalanasiz? Savoliga tarbiyachilarning 40% aniq javob ayta olmayman, 20 % oʻyin faoliyati orqali 20% mehnat faoliyati orqali 10% badiiy sanat sport orqali deya javob bergan




3. Diagramma. Soʻrovnoma natijalari

4. Bolalarga qaysi faoliyat turi ko‘proq mustaqilliklarini namoyon etishiga yordam beradi Savoliga tarbiyachilarning 30% rang tasvir bilan shug‘ullanish, 20% sport mashg‘ulotlari, 15% sher yotlash ertak va hikoyalar, 20% o‘yin faoliyati, 10% musiqa va raqs, 5% oiladagi mustaqillik deya javob berishgan.



4. Diagramma. So‘rovnoma natijalari

5. Guruhingizda o‘z xohishi istaklarini to‘laqonli ifodalay olmaydigan bolalar bormi, Ularning ota onalari bilan birgalikda ishlaysizmi Savoliga tarbiyachilarning 40% Ha bor, 15% yuq, 45% ha ammo ota onalar bilan ishlamayman deya javob berishgan.



5. Diagramma. So‘rovnoma natijalari

6. Mashg‘ulotlarni olib borish jarayonida bolalarga ko‘proq erkinlik berishga harakat qilaysizmi? Savoliga tarbiyachilarning 70% Ha 30% Yo‘q javob berishgan

7. Maktabgacha yoshdagi ayrim bolalarda mustaqilligini past darajada bo‘lishining qanday omillarini bilasiz Savoliga tarbiyachilarning

Ushbu xatti-harakatning eng keng tarqalgan sababi noto‘g‘ri shakllangan ota-ona va bola munosabatlaridir deya javob bergan respondentlar 90% tashkil qildi. Qolgan 10% boshqa turli sabablarni keltirishdi

8. Bolalarni mustaqilligini rivojlantirish masalalari yuzasidan o‘z ustingizda ishlaysizmi Savoliga tarbiyachilarning 70% Ha. 30% Yo‘q deya javob berishgan

2-Bosqichda Ota onalar farzandingiz qay darajada mustaqilligini baholab berishdi

*Ota onalar uchun so'rovnoma natijalari quyidagi 8 yo'nalishlar bo'yicha baholanadi natijalarga ko'ra:*

1-jadval

### So'rovnoma natijalari.

1. Ota-onalarning bolaning mustaqilligini oshirishga intilish darajasi:	
	- Ha: 78%
	- Yo'q: 22%
2. Ota-onalarning farzandi uchun mustaqillik muhimligi haqidagi fikrlari:	
	-Muhim deb hisoblaydi: 90%
	- Yo'q: 10%
3. Mustaqillikni tarbiyalash amaliyoti:	
	- Doimiy shug'ullanadi 75%
	- Yo'q: 25%
4. Bolaning uy ishlarida ishtiroki ota onalar nazarida:	
	- Ha: 30%
	- Yo'q: 70%
5. Vazifalarni bajarishda bolaning xatti-harakati:	
	- O'ziga ishonadi va to'g'ri ishlashga intiladi: 25%
	- Qiyinchiliklarni mustaqil yengadi: 45%
	- Qiyinchiliklarga duch kelganda yordam so'raydi: 25%
	- ishni tugatmaydi: 5%
6. Qorong'i va yopiq joylarga bolaning munosabat:	
	- Qo'rqmaslik: 60%
	- Qo'rquv: 40%
7. Telefondan foydalanish qobiliyati:	
	- Foydalanishni biladi: 50%
	- Qanday foydalanishni bilmaydi: 50%
8. Bolaning ruxsat etilgan chegaralarni baholashi:	
	- Biladi va tushunadi: 70%
	- Tushunmaydi: 30%

Natijalarga ko'ra ota onalarning bolalar mustaqilligini muhimligini yaxshi bilishi ammo doimiy bu borada mashg'ulot olib bormasligi aniqlandi shuning ular mashg'ulotlarni qanday shaklda tashkil etish borasida ham aniq tushunchaga ega emaslar.Ota onalar bilan o'tkazilgan qo'shimcha so'rovnoma va intervyular orqali ular asosan bolalarida e'tiborsizlik, tilni tahlil qilishda qiyinchilik, zaif so'z boyligi, og'zaki nutqning buzilishi, nutqning diqqat va xotirasida qiyinchilik borligini ta'kidlashgan.

#### Muhokama

Maktabgacha yoshdagi bolalarda mustaqillikni o'yin faoliyati orqali shakllantirishni o'rganishga qaratilgan tadqiqot sinab ko'rish bo'yicha tadqiqotni loyihalashda test guruhlarini yosh, rivojlanish bosqichi, ijtimoiy-iqtisodiy sharoit va oldingi ta'lim tajribalari kabi asosiy omillarga qarab ajratildi. Bundan tashqari,

natijalarni aniq taqqoslash uchun standart yondashuvni oladigan nazorat guruhidan foydalanildi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda mustaqillikni o'yin faoliyati orqali shakllantirishni o'rganishga qaratilgan tadqiqot dastlabki va yakuniy holatlarni baholash maqsadida Toshkent shahri Mirzo Ulug'bek tumanidagi 134-sonli MTM larida sinov guruhlari tashkil etildi.

Yosh guruhlari. Rivojlanishdagi farqlari hisobga olish va shunga mos ravishda yondashuvni moslashtirish uchun bolalar turli yosh guruhlariga

4-5 yoshli,

6-7 yoshli bolalar) ajratildi

Nazorat guruhi: Maktabgacha yoshdagi bolalarda mustaqillikni o'yin faoliyati orqali shakllantirishni o'rganishga qaratilgan tadqiqot taqqoslashda standart va an'anaviy yondashuvni qabul qiladigan nazorat guruhlariga ajratildi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda mustaqillikni o'yin faoliyati orqali shakllantirishni o'rganishga qaratilgan tadqiqot asosiy baholash mezonlari

1. Kundalik ishlarda mustaqillik: bolaning o'ziga g'amxo'rliqi, kiyinish, tozalash va boshqa vazifalarni yordamisiz bajarishi.

2. Qaror qabul qilish: bolaning vaziyatlarni tahlil qilish, muammolarni aniqlash va ularni mustaqil ravishda hal qilish yo'llarini topishi.

3. Tashabbus: bola maqsadlarga erishish va o'zini yangi harakatlarga rag'batlantirishda faolligi.

4. Aloqa o'rnatish va muloqot qilish qobiliyati: atrofdagi odamlar bilan mustaqil ravishda munosabatlar o'rnatish va ular bilan umumiy til topish qobiliyati.

5. Mas'uliyat: o'z harakatlari uchun javobgarlikni o'z zimmasiga olish, o'z majburiyatlariga e'tibor berish va ularni to'g'ri bajarish qobiliyati.

6. O'z ishlarini rejalashtirish va tashkil qilish qobiliyati: bolaning harakatlarini mustaqil ravishda rejalashtirish va o'z vaqtini boshqarish qobiliyati.[3]

Bolalarning mustaqilligini rivojlantirishga hissa qo'shadigan o'yin faoliyatining asosiy mezonlari:

1. Tashabbus: bolalar nima va qanday o'ynash haqida o'zlari qaror qabul qiladilar, o'yinning roli va ssenariysini tanlaydilar, bu ularning mustaqil qaror qabul qilish qobiliyatini rivojlantiradi.

2. Ijodkorlik: O'yin faoliyati bolalarga yangi rollar, ssenariylar va hikoyalar yaratish orqali tasavvur, tasavvur va ijodkorlikni ifodalash imkonini beradi.

3. O'z-o'zini tartibga solish: o'yin orqali bolalar o'zlarining his-tuyg'ularini, harakatlarini va xatti-harakatlarini nazorat qilishni o'rganadilar, bu o'z-o'zini boshqarish ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi.

4. Hamkorlik: O‘yin faoliyatida bolalar jamoada ishlashni, boshqalarning fikri va ehtiyojlarini hisobga olishni o‘rganadilar, bu hamkorlik va muloqot qobiliyatlarini rivojlantiradi.

5. Mustaqillik: o‘yin faoliyati bolalarning mustaqil bo‘lishiga, muammolarni mustaqil hal qilishga, harakatlarini rejalashtirishga va nazorat qilishga yordam beradi[4].

2-jadval

Bolalarning mustaqilligini rivojlantirishga o‘yin faoliyatining hissasi dastlabki va yakuniy holatlar bo‘yicha kuzatuv natijalari (bolalar soni 80 ta tanlangan guruhlar soni 3ta yosh chegarasi 4-6)

№	Mustaqillik sifatleri	Dastlabki holat	Yakuniy holat
1.	Kundalik hayot faoliyatida mustaqillik : Bolalar kiyinish va yechinish, ovqat tayyorlashda va o‘yinchoqlarni yig‘ish kabi oddiy o‘z-o‘zini parvarish qilish vazifalarini muvaffaqiyatli bajaradi	30%	86%
2.	Qaror qabul qilish : Bolalar ko‘pincha o‘zlari kichik qarorlar qabul qilish qobiliyatini namoyon qiladilar, ammo murakkabroq vaziyatlarda yordam va yo‘nalish kerak bo‘lishi mumkin. Ular bir nechta variantlardan birini tanlashlari mumkin, ammo kattaroq qarorlar qabul qilishda qiyinchiliklarga duch kelishlari mumkin.	20%	75%
3.	Tashabbus : Bolalar yangi vazifalar va vaziyatlarga faol qiziqish bildiradilar, muammolarni mustaqil ravishda hal qilishga harakat qiladilar. Ular o‘z g‘oyalarini taklif qilishga va yangi narsa qilish yo‘llarini izlashga tayyor. Biroq, ba’zida ular boshqa birovning yordamisiz harakat qilishni boshlashga ishonchlari yo‘q.	50%	80%
4.	Muloqot va muloqot qilish qobiliyati : Bolalar osongina boshqalar bilan umumiy til topadilar, muloqotda do‘stona va ochiqlik ko‘rsatadilar. Ular o‘z fikrlari va his-tuyg‘ularini ifoda etishda va boshqalarni tinglashda va tushunishda yaxshi. Bolalar nizolarni hal qila oladilar va ijtimoiy tadbirlarda qatnashadilar.	30%	70%
5.	Mas’uliyat : Bolalar o‘z vazifalariga qiziqish va g‘ayrat bilan munosabatda bo‘lishadi, lekin ba’zida kichik xatolar uchun javobgarlikka tortilishi mumkin. Ular o‘z mas’uliyatini tushunib, o‘z ishlariga g‘amxo‘rlik qilishadi, lekin ba’zida muhim vazifalarni bajarishda yordamga muhtoj bo‘lishadi.	52%	74%
6.	O‘z ishini rejalashtirish va tashkil etish qobiliyati : Bolalar harakatlar rejasini tuzishda va topshiriqlarning bajarilishini nazorat qilishda qiyinchiliklarga duch kelishlari mumkin. Vazifani bajarishda to‘siqlarga duch kelsalar, qiziqishlarini yo‘qotishlari mumkin. Biroq, yordam bilan ular o‘z maqsadlariga muvaffaqiyatli erishishlari mumkin.	18%	40%

Bolalardagi mustaqillik darajasini baholash ularning turli vaziyatlardagi xatti-harakatlarini tahlil qilish, ular bilan muloqot qilish, qaror qabul qilish va o‘z harakatlarini boshqarish qobiliyatini baholash orqali amalga oshirilishi mumkin.

Eksperimental tadqiqotlar natijalari shuni ko‘rsatadiki, o‘yin maktabgacha yoshdagi bolalarda qaror qabul qilish, o‘zini o‘zi boshqarish, rejalashtirish va muammolarni hal qilish ko‘nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi. Bundan tashqari, bunday tadqiqotlar o‘yin faoliyati orqali mustaqillikni rivojlantirishni qo‘llab-quvvatlashning maqbul shartlarini aniqlashga yordam beradi, masalan, erkin o‘yin, turli xil materiallar va tanlov imkoniyatlari bilan ta’minlash.



Ammo shuni ta'kidlash joizki, tadqiqot natijalari muayyan kontekst va bolalar guruhiga xos bo'lishi mumkin, shuning uchun o'yin muhitini yaratishda har bir bolaning individual xususiyatlarini hisobga olish kerak.

#### XULOSA

Maktabgacha yoshdagi bolalarda mustaqillikni o'yin faoliyati orqali shakllantirishni o'rganishga qaratilgan tadqiqotlar o'yin bolalarda mustaqillikni rivojlantirishga qanday hissa qo'shishini tahlil qilish maqsadida amalga oshirildi. Eksperimental yondashuv o'yinning bolaning mustaqilligiga ta'sirini tizimli tahlil qilish imkonini beradi. Tadqiqotda Ilmiy tahlil, So'rovnoma (ota onalar va pedagoglar o'rtasida), O'z-o'zini baholash shkalasi, Kuzatish, Taqqoslash, Statistik tahlil kabi metodlardan foydalanildi. Eksperimental tadqiqotlar natijalari shuni ko'rsatadiki, o'yin maktabgacha yoshdagi bolalarda qaror qabul qilish, o'zini o'zi boshqarish, rejalashtirish va muammolarni hal qilish ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi. Bundan tashqari, bunday tadqiqotlar o'yin faoliyati orqali mustaqillikni rivojlantirishni qo'llab-quvvatlashning maqbul shartlarini aniqlashga yordam beradi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Almazova T.A. Maktabgacha yoshdagi bolalarni ta'lim va tarbiyalashning xususiyatlari. M., 2007. – 40 b
2. Avdeeva N.N. 1 yoshli bolalarda shaxsiyatning genetik asoslarini rivojlantirishda yetakchi faoliyatning roli // Ontogenezda psixikaning rivojlanishini davrlashtirish muammolari.- M., 2016 -10b
3. Ageeva E.J.I. Katta yoshdagi maktabgacha yoshdagi bolalarning tafakkurini shakllantirishda yoshning o'ziga xos xususiyatlaridan foydalanish //Yosh olimlarning asarlarida maktabgacha ta'lim muammolarini o'rganish. M., 2005. – S. 3-5 b.
4. Tarbiyalanuvchilar organizmining ta'lim va jismoniy yuklarga moslashishi / Ed. A. G. Xripkova, M. V. Antropova. M.: Pedagogika, 2012. – 5 b
5. Ayvazyan JI.M. Loyihalash jarayonida katta maktabgacha yoshdagi bolalarda aqliy faoliyatni shakllantirish: Dissertatsiya avtoreferati. Diss. Samimiy. Ped. Fanlar. Yerevan, 2002,2 b
6. Ta'limga qiziqishni shakllantirishning dolzarb masalalari / Ed. G.I. Shukina. M. : Ma'rifat, 2004 y,6,12 b